




FARG'ONADA XALQ TA'LIMI MAKTABLARINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA AHVOLI

Mamajonova Gulnoraxon Ismoiljon qizi

Qo'qon davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18981867>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 4-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 12-mart 2026 yil

KEY WORDS

*Ta'lim, qayta qurish, kapital
remont, qonun, kutubxona, sport
zal, "bufet", mustaqillik.*

ABSTRACT

Mazkur maqola mustaqillikkacha bo'lgan davr ya'ni XX asr 80-yillaridan boshlab Farg'ona xalq ta'limining maktablari va unda faoliyat yurituvchi o'qituvchilarning moddiy ahvoli haqida qisqacha ma'lumot beradi. 1991-yildan keyingi dastlabki davrlar xalq ta'limi moddiy ahvoli haqida ayrim fikr mulohazalar berib o'tilgan.

KIRISH

Ta'lim tizimi sohasi haqida fikr yuritilar ekan O'zbekiston mustaqillik qo'lga kiritilgungacha bo'lgan davrda, SSSR tarkibida bir qancha mafkuraviy va iqtisodiy tomonlarni bosib o'tdi. XX asr 80 yillari maktablar moddiy-texnik bazasi yaxshi e'tibor berilmagan sohalaridan biri edi. Kommunistik tizim mahsuli sotsializm maktablar hayotiga juda katta ta'sir o'tkazgan edi. Bu davrda Ittifoqda iqtisodiy va siyosiy tushkunlik davri boshlanish arafasida edi. XX asr 80-yillari o'rtasida, ya'ni 1985-yilda "qayta qurish" siyosati e'lon qilindi. Ushbu siyosat barcha sohalarini, shu qatori maorif sohasini ham qamrab olish kerak edi. Afsuski, Ittifoq har tomonlarni inqirozga yuz tutib bo'lgan. Maorif sohasi ham o'nglanishi qiyin. Paxta siyosati, o'qituvchilar moddiy ahvoli yomonligi o'quv honalari qoniqarli emasligi, o'quvchilar uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi, o'quv qurollari yetishmasligi, darsliklar zamon talabida emasligi kabi muammolar maorif sohasini qamrab olgan edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng barcha sohalar qatori ta'lim tizimi sohasi ham yangi mustaqillik ruhida yaratilgan mafkura va tizim bo'yicha yo'lga qo'yila boshlandi.

ASOSIY QISM

II jahon urushidan keying davrlar barcha sohalar qatori maorif sohasi uchun ham og'ir davr bo'lgan. Kadrlar masalasidan tortib moddiy ahvol salbiy holatga tushib qolgan edi. Lekin shunga qaramay asta sekin bu soha o'z holatini tiklay boshladi. O'qituvchining moddiy ta'minotini o'sib borishi 1960-1975-yillar davomida yaxshigina ko'rsatkich bergan bo'lsa, 1980 yillardan boshlab pasayib bordi. 1960 yillarning boshlariga kelib xalq xo'jaligining ta'lim va ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ishchi-xodimlarning ish haqi darajasida sezilarli tafovut yuzaga keldi. Masalan, 1958-yilda ta'lim oluvchilarning o'rtacha oylik ish haqi sanoat ishchilariga nisbatan 20 % past bo'lgan. Ish haqi farqi xalq xo'jaligining ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchilarning ish haqi regulyazatsiyasidan keyin yana ham ortdi va 1960 yilda uning tarkibi allaqachon 24% ni tashkil qildi. SSSR Ministrlar Kengashi Markaziy Ijroiya qo'mitasi 1964 yil 15 iyul kuni "Ta'lim va sog'liqni saqlash, uy-joy va kommunal xizmatlar xodimlari ish haqini oshirish" to'g'risidagi №620 sonli qarorini qabul qildi. Ushbu qaror qabul qilingan vaqtda ta'lim sohasi xodimlariga ish haqi to'lashda quyidagi kamchiliklar bor edi.

1980-yillarda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag' 11%dan 8%ga kamayib ketdi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi maktablarning 20-60%i zarur o'quv

qurollari, asbob-anjomlar bilan jihozlanmay qolaverdi, 50%dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi. Kuni uzaytirilgan guruhlar ishi ayniqsa o'lda-jo'lda qoldi. 80-yillarda 1-8-sinf o'quvchilarining atigi 8-9 %ini bunday guruhlarga jalb etilgan edi, xolos¹.

80-yillarda O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o'qitish vositalaridan foydalanmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi. To'g'ri, bu yillarda maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni yildan-yilga ortib bordi, son ko'rsatkichlari kishini hayratga solar darajasida ortdi. Maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarini o'zlashtira olmasligi odatiy hol bo'lib qoldi. Bu ularni paxta va boshqa qishloq xo'jalik ishlariga ko'proq jalb qilinishi bilan izohlanadi. O'quv yilining 3-4 oyi ana shunday majburiy tadbirlar bilan band bo'lishga ketar edi. Bu esa o'zbek o'quvchisini jahon standartlaridan ortda qoldirib, zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishga imkon bermasdi.

Maktabda o'qituvchilar xonasining alohida o'rni bor. O'qituvchilar turli masalalardagi o'z muammolari bilan o'rtoqlashishlari mumkin bo'lgan. Dars tahlili, tushlik masalasi, shaxsiy masalalar haqida fikr almashishgan. Hatto darsdan keyin o'qituvchilar xonasida ayol o'qituvchilar to'planib to'planib qo'shiq aytib raqs tushishgan. Madaniy dam olishning bu xil turiga maktab rahbarlari ham e'tiroz bildirmaganlar. Tug'ilgan kunlar ham shu xonada nishonlangan. Lekin barcha maktablarda ham o'qituvchilar xonasi bo'lmagan. Davriy matbuotlarda 1980-1990-yillar orasida o'qituvchi darsdan so'ng dam olishi, o'z ustida ishlashi, fikr almashishi va hordiq chiqarishi uchun imkoniyat yaratilishini, o'qituvchilar uchun dam olish xonalari ajratilishini talab qilgan maqolalar ham chop etila boshlandi

O'zbekiston SSR kasaba uyushmalari tomonidan o'qituvchi va maorif xodimlariga dam olish uylariga va sihatgohlarga ajratiladigan yo'llanmalar soni ko'paytirildi. 1980-yilda ularda 9000 dan ortiq o'qituvchi dam oldi. 3000 mingdan oshiq kishi turistik bazalarda hordiq chiqargan, 38 mingdan ortiq o'qituvchilar respublika bo'ylab tashkil qilingan ekskursiyalarga jalb qilingan. 900 dan ortiq o'qituvchilar chet elga sayohat qilganlar. "Qayta qurish" siyosati yillarida davriy nashrlarda o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar yaxshi emasligi haqidagi tanqidiy maqolalar chiqa boshladi. "Maktabda o'qituvchilar xonasi bo'lishi kerakmi?" mavzusidagi maqolada o'qituvchilarni ruhiy dam olishlari uchun ajratiladigan xonalar haqida so'z yuritilgan. Haqiqatan ham o'qituvchining qadriga yetish, dam olishini tashkillash maqsadida dam olish xonalarini tashkil etish ayni muddao bo'ladi. O'qituvchi har bir soatda qancha energiya yo'qotib ruhan charchaydi. Nima uchun 30 yildan ortiq ishlayotgan tajribali o'qituvchi kam uchraydi? Chunki o'qituvchilarning ko'pchiligi maktabdagi sharoit yaxshi emasligi, ruhiy charchashligi tufayli kasb kasalligiga uchraydi. Ayrim o'qituvchilar kasbini o'zgartiradi. Dars o'tish, turli yig'ilishlarga qatnashish, o'z ustida ishlash, daftar tekshirish, ko'rgazma tayyorlash singari ishlar borki, bunga o'qituvchi nechog'lik ko'p kuch-g'ayrat sarf qilishi kerak bo'ladi. Ko'pgina o'qituvchilarning sinf rahbarligi bor. Shunga ko'ra u kechgacha maktabda bo'ladi. Erkak o'qituvchilar ozmi-ko'pmi dam olishga imkon topaoladi. Lekin o'qituvchilarning juda katta qismini tashkil qilgan ayollar maktabdan kelib, uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'ladi. Amal-taqal qilib ishini tugatib, konspekt qilgani o'tiradi. 60 talab daftar tekshiradi. O'qituvchilar gardanida noo'rin vazifalar osilib turaveradi. Shuning uchun aksariyat o'qituvchilarning na badiiy kitob o'qishga, na teatrqa borishga vaqti bo'ladi.

Yana bir suhbat qurgan fidoyilarimizdan biri shunday deydi. U 1982-1992-yillarda Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi 10-umumtalim maktabida o'qigan. Maktabning moddiy-texnik bazasi yaxshi bo'lganligini, maktabda laboratoriya jihozlari yetarli darajada bo'lganligi, o'qituvchilarning bilim berishi bilim saviyasi haqida ma'lumot o'sha davrda ham maktab o'qituvchilariga sanatoriyalarda uchun yo'llanmalar berilganligi haqida ham aytib

¹ Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-э—90-э гг.: проблемы и тенденции. — Т. 1996.

O'quvchilarga bilim berish jarayonida kommunizm qurish g'oyasi ham singdirilganligini alohida takidlab o'tdi.²

Kerakli jihozlar yetarli bo'lgan. Miltiq, aftamat, o'q dori va minalar bor edi. O'qituvchilarning bilimi yaxshi yurakdan dars bergan lekin darslarda turli xil pedagogik texnologiyalardan va turlicha metodlardan foydalanilmagan. O'qituvchilar ijtimoiy hayoti haqida usti but qorni to'q bo'lgani kamdan kam o'qituvchilarda mashina bolgani haqida eslab o'tdi.³

Ergasheva Shoiraxon 1980-1990-yillarda Farg'ona viloyati Bog'dot tumani 19-umumta'lim maktabida taxsil olgan. Hozirda ushbu maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelmoqda. Maktab qishloq hududida joylashgan. Isitish tizimi yaxshi bo'lmagan. Moddiy texnik bazasi ham yetarli emas edi. Maktablarda rus tili va adabiyoti faniga ko'proq, o'zbek tili va adabiyoti faniga juda kam dars soat ajratilganligini eslab o'tdi⁴.

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillarida Respublika maktablarining moddiy-texnik ahvoli yomon holatda edi. Xususan, 1991 yilda respublikada 901⁵ ta avariya holatidagi maktablar faoliyat yuritgan. Bu kabi maktablar vodiylarida ham mavjud edi. Masalan, Namangan viloyatida 1990-1991 o'quv yilida 564 maktabdan 60 foizi nobop moslashtirilgan binolarda joylashgan edi. Qisqa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillarida Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi mavjud maktablarning 15,0 foizi avariya holatida bo'lgan.

Yosh mustaqil respublika o'ziga mana shunday og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni meros qilib olgan edi. Mustaqillik yillarida ularning yechimini topish, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi maktab binolarini qurish, qaytadan rekonstruksiya qilish, ta'mirlash ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga bu sohada bir qator muammolarga duch kelindi. Jumladan, Farg'ona viloyatida ham shunday vaziyatni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Oxunboboyev tumanida qurilishi boshlanib nihoyasiga yetmayotgan 13 ta maktab mavjud bo'lgan.

Keyingi yillarda mamlakatda yangi va zamonaviy maktablar qurishga katta e'tibor karatildi. Xususan, 1995-yili 54732 o'rinli 134 ta, 1996-yili 63622 o'rinli 198 ta, 1997-yili 63911 o'rinli 192 ta 1998 yilda 72945 o'quvchiga mo'ljallangan 181 ta maktab qurilib foydalanishga topshirildi. 1997-2000 yillar davomida respublika bo'yicha jami 188 mingdan ziyod o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 518 ta umumta'lim maktablari va ularga qo'shimcha binolar qurilib foydalanishga topshirildi, 916 ta maktab tabiiy gaz tarmog'iga, 217 ta maktab ichimlik suvi tarmog'iga ulandi, 405 ta maktabda oshxona va bufetlar, 90 ta maktabda kutubxonalar, 64 ta maktabda sport zallari, 155 ta maktabda sport maydonchalari ishga tushirildi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shunday xulosa qilish mumkin, maorif sohasi qisqa davrda turli hil tizim va tuzumni boshdan o'tkazganligini ko'rish mumkin. XX asr 80-yillar murakkab davrda Farg'ona maorif sohasida moddiy-texnik baza ahvoli juda ham achinarli holatda qolgan. Maktablar ta'mirlanganlik holati juda ham sust, o'quv xonalar jihozlanishi esa talabga javob bermasligini ko'rish mumkin. O'quv darslik va qurollari ham arang o'quvchilarga yetkazib berilganligini ko'rish mumkin. Mustaqillik yillari ta'lim tizimi tubdan isloh qilinganligi e'tiborga loyiq. Ittifoq tarkibi davridagi ta'lim tizimidan butkul voz kechildi. Eng muhim jihati maktablarning moddiy-texnik bazasi ancha ijobiy holatga yetdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonda ta'limning rivojlanishi va tarixshunosligi. Ocherklar Mas'ul muharrir: t.f.d., prof. D.A.Alimova. - Toshkent: Tafakkur qanoti. 2015. — 327 b.
2. O'zbekistonda ta'limning rivojlanishi va tarixshunosligi. Ocherklar Mas'ul muharrir: t.f.d.,

² Ahmedova Rashidaxon. T.f.f.d., dotsent, hozirda Qo'qon davlat universitetida faoliyat olib bormoqda

³ To'ychiyev To'lanboy. 1974-1984-yillarda Farg'ona viloyati uchko'pirik tumanidagi 28- va 1-umumtalim maktabida o'qigan. Hozirda nafaqada

⁴ Ergasheva Shoiraxon 1980-1990-yillarda Farg'ona viloyati Bog'dot tumani 19-umumtalim maktabida taxsil olgan. Hozirda ushbu maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelmoqda

⁵ Каримов И Мустакилликка эришиш остонасида. - Тошкент: Узбекистан. 2011. - Б. 6.

prof. D.A.Alimova. - Toshkent: Adabiyot uchkunlari. 2017. - 386 b.

3. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkinchi kitob. Mas'ul muxarrirlar: Abdullayev R, Raximov M, Rajabov Q.- Toshkent: O'zbekiston. 2019.-574 b.

4. Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. Ikkinchi kitob. - Toshkent: «Sharq», 2011.717 b.

5. Xatamov T. O'zbekiston umumta'lim maktablari ta'lim islohotlari tizimida: muammolar, yechimi va istikboli (1991-2009 yy) Tarix fan. nom. .diss. Toshkent: 2010. 162 b

6. Ma'rifat gazetasi

7. www.fdu.uz - Farg'ona davlat universiteti rasmiy sayti.

8. www.uzedu.uz - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti.

9. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.



**INNOVATIVE
ACADEMY**